

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ПРЕЗИДЕНТЛИГИГА НОМЗОД

**ШАВКАТ МИРОМОНОВИЧ  
МИРЗИЁЕВНИНГ**  
САЙЛОВОЛДИ ДАСТУРИ

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTLIGIGA NOMZOD

**SHAVKAT MIROMONOVICH  
MIRZIYOYEVNING**  
SAYLOVOLDI DASTURI

---

ПРЕДВЫБОРНАЯ ПРОГРАММА КАНДИДАТА  
В ПРЕЗИДЕНТЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ШАВКАТА МИРОМОНОВИЧА  
МИРЗИЁЕВА**



**O'ZLIDER**

Шавкат Миромонович  
Мирзиёевнинг

**ТАРЖИМАИ ҲОЛИ**

Шавкат Миромонович Мирзиёев 1957 йил 24 июлда Жиззах вилоятининг Зомин туманида шифокор оиласида туғилган. Миллати – ўзбек. Олий маълумотли, 1981 йили Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтини тамомлаган. Муҳандис-механик мутахассислигига эга. Техника фанлари номзоди, доцент.

Меҳнат фаолиятини 1981 йилда Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтида кичик илмий ходимликдан бошлаб, катта ўқитувчи, доцент, ўқув ишлари бўйича проректор лавозимларида ишлаган.

1990 йилда Республика Олий Совети депутати этиб сайланиб, Мандат комиссиясининг раиси сифатида ҳам фаолият юритган.

1992 йилда Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек тумани ҳокими, 1996–2001 йилларда Жиззах вилояти ҳокими, 2001–2003 йилларда Самарқанд вилояти ҳокими лавозимларида хизмат қилган. Ижро ҳокимиятидаги фаолияти билан бир пайтда 1995–2003 йилларда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг депутати сифатида қонунчилик жараёнида ҳам фаол иштирок этган.

Ш.М. Мирзиёев 2003 йилда Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири этиб тасдиқланиб, 2016 йилга қадар самарали фаолият юритган.

2016 йил декабрь ойидан ҳозирги вақтга қадар Ўзбекистон Республикаси Президенти сифатида Ватанимизга садоқат ва фидойилик билан хизмат қилиб келмоқда.

Ш.М. Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида фаолият юритган даврда унинг концептуал ғоялари асосида ишлаб чиқилган Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси доирасида беқиёс ўзгаришлар амалга оширилди. Шу даврда 300 га яқин қонун, 4 мингдан зиёд Президент фармони ва қарорлари қабул қилинди.

Ш.М. Мирзиёевнинг саъй-ҳаракатлари билан “Давлат – инсонлар учун” деган халқчил ғоя асосида давлат бошқарувининг самарали ва барқарор тизими яратилди. Давлат органларининг халққа бевосита хизмат қилиши устувор тамойил этиб белгилангани натижасида аҳолининг бандлиги ошди, илм-фан, таълим-тарбия, соғлиқни сақлаш, маданият ва санъат соҳалари тубдан ислоҳ қилинди, кекса авлод вакиллари, аёллар ва ёшларга эътибор ва ғамхўрлик янги босқичга кўтарилди.

Давлат ва жамият қурилиши, иқтисодиётни эркинлаштириш, хусусий мулк дахлсизлигини, тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган

муҳим дастурлар изчил амалга оширилди. Мамлакатимизда тинчлик ва барқарорликни, миллатлараро ва конфессиялараро ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш, аҳолининг маданий-маърифий савиясини юксалтириш, Куролли Кучларимизнинг жанговар салоҳиятини ошириш, ўзаро манфаатли прагматик ташқи сиёсат олиб бориш бўйича улкан ишлар амалга оширилди.

Валютанинг эркин конвертацияси таъминланди, мажбурий меҳнат барҳам топди, кўп йиллар аҳолини қийнаб келган “прописка” тизими тубдан ислоҳ қилинди.

Сўнгги беш йилда амалга оширилган ислохотлар натижасида аҳолининг турмуш даражаси яхшиланиб, мамлакатимиз иқтисодиёти 24 фоизга, саноат 34 фоизга, экспорт ҳажми 1,5 баробарга, хорижий инвестициялар ҳажми эса 3 баробарга ўсди. Ўртача ойлик иш ҳақи 2,2 марта кўпайди.

Ш.М. Мирзиёевнинг қатъий иродаси ва юксак ташкилотчилик салоҳияти туфайли халқни рози қилиш, камбағалликни камайтириш вазифаси давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ушбу муаммони ечишда ўзига хос ёндашув ва иш услублари шаклланди. “Темир”, “аёллар”, “ёшлар” ва “меҳр” дафтарлари асосида аниқ режа ва дастурлар ишлаб чиқилди ва улар бугунги кунда ҳаётга фаол жорий этилмоқда.

Ўтган давр мобайнида Ўзбекистон улкан бунёдкорлик ва ободончилик мамлакатига айланди. 2017 йилда Манас қишлоғидан бошланган қурилиш ва ободончилик ишлари умуммиллий ҳаракатга айланиб, бутун юртимизни қамраб олди. Бугун энг чекка ва олис ҳудудлардаги минглаб аҳоли масканлари ҳам янгича қиёфа ва чирой касб этмоқда.

Ш.М. Мирзиёев Ўзбекистонга раҳбарлик қилган даврда аҳоли учун уй-жойлар қурилиши кўлами 2016 йилга нисбатан 10 баробар ошди, 140 мингдан зиёд арзон ва сифатли уй-жойлар бунёд этилди.

Ўтган беш йил мамлакатимизнинг нафақат ички, балки ташқи сиёсатини ҳам тубдан ўзгартирган, жаҳон аҳлига Янги Ўзбекистонни кашф этган давр бўлди.

Ш.М. Мирзиёев оилали, икки қизи, бир ўғли, олти нафар набираси бор. Рафиқаси З.М. Мирзиёева “Замин” фонди васийлик кенгаши раиси сифатида фаолият кўрсатмоқда.

Ш.М. Мирзиёев давлат ва бошқарув органларидаги кўп йиллик самарали меҳнати, юртимиз равнақи, халқимиз фаровонлигини юксалтиришга қўшган улкан ҳиссаси учун “Меҳнат шуҳрати” ва “Фидокорона хизматлари учун” орденлари билан тақдирланган.

Шунингдек, у турли халқлар ўртасида дўстлик ва ўзаро манфаатли ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш йўлидаги катта хизматлари учун бир қатор хорижий мамлакатларнинг юксак давлат мукофотларига ҳам сазовор бўлган.



**O'ZLIDER**

ШАВКАТ МИРОМОНОВИЧ  
МИРЗИЁЕВНИНГ

## **САЙЛОВОЛДИ ДАСТУРИ**

---

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ИНСОН  
ҚАДРИ УСТУВОР БЎЛГАН ЖАМИЯТ  
ВА ХАЛҚПАРВАР ДАВЛАТДИР



## **Мухтарам ватандошлар!**

Жонажон Ватанимиз – Ўзбекистонимиз буюк ўзгаришлар арафасида турибди. Дунё миқёсида глобал тинчлик ва барқарорликка, инсоният томонидан неча минг йиллар давомида яратилган кадрият ва анъаналарга қарши таҳдид ва хатарлар кучайиб, турли давлатлар ўртасида рақобат тобора шафқатсиз тус олаётган, мамлакатимиз ўз тараққиётининг сифат жиҳатидан мутлақо янги босқичига қадам қўяётган ҳозирги ғоят мураккаб ва масъулиятли даврда ўз олдимизга аниқ стратегик мақсадлар қўйиб, истиқбол режаларини белгилаб олиш ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда.

**Биз шу мақсадда Янги Ўзбекистон стратегиясини ишлаб чиқдик. Шу йил 24 октябрда бўлиб ўтадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови ана шу Стратегияни халқимиз муҳокамасидан ўтказиш, янги фикр ва ғоялар билан бойитиш ва муваффақиятли амалга ошириш учун энг катта имконият, деб биламиз.**

Ҳеч шубҳасиз, мамлакатимизни 2017–2021 йилларда ривожлантиришнинг 5 та устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси доирасида ўтган беш йилда яратилган, давлатимизнинг инсон учун, халқ учун очилиши, аҳоли билан бевосита мулоқот қилиш,

унинг муаммоларини ижобий ҳал этишга қаратилган мутлақо янги сиёсий-ижтимоий тизим биз учун бу йўлда мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилади.

Биз бу жараёнда қуйидаги ички ва ташқи омилларни ҳисобга олиш албатта шарт ва зарур, деб ҳисоблаймиз:

**биринчидан**, 2026 йилга бориб мамлакатимиз аҳолиси сони 38 миллиондан ошиши кутилмоқда;

**иккинчидан**, аҳолимизнинг қарийб 55 фоизини ёшлар ташкил этмоқда ва ҳар йили меҳнат бозорига камида 600 минг ёшлар кириб келмоқда;

**учинчидан**, дунё миқёсида иқтисодиётнинг таркиби кескин ўзгариб, рақамли ва биотехнологиялар, сунъий интеллект каби соҳалар шиддат билан ҳаётимиздан ўрин эгалламоқда, иқтисодиёт ривожини усқуналар эмас, балки замонавий билим ва инновациялар белгиламоқда;

**тўртинчидан**, кескин иқлим ўзгаришлари юз бериб, сув ресурслари камайиб бормоқда, бу эса дунё миқёсида қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат хавфсизлиги, аҳоли саломатлиги ва даромадларига жиддий хавф солмоқда;

**бешинчидан**, халқаро майдондаги ва минтақамиздаги зиддиятлар, радикализм, экстремизм ва терроризм каби хавф-хатарлар кўлами кенгайиб бормоқда.

Ана шундай кескин вазиятда эл-юртимиз биздан янги режа ва дастурларни амалга оширишни кутаётганини ўзимизга яхши тасаввур этамиз. Шунинг учун халқимизнинг ишончи ва орзу-ниятлари, эзгу умидларини рўёбга чиқариш мақсадида:

юртимизда тинчлик ва барқарорликни сақлаш;  
фуқаролар ва миллатлар ўртасида дўстлик ва ҳамжиҳатлик муҳитини мустаҳкамлаш;

халқимизнинг маънавий дунёсини янада юксалтириш;

Ўзбекистонда яшаётган, миллати, тили ва динидан қатъи назар, ҳар бир ватандошимизнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя этиш, кафолатли даромад манбаи, тиббий хизматлар ва уй-жой, сифатли таълим билан таъминлаш;

камбағалликни қисқартириш ва эҳтиёжманд аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш;

мамлакатимизнинг халқаро майдондаги обрў-эътибори ва нуфузини ошириш биз учун энг муҳим ва устувор вазифа бўлиб қолади.

Эл-юртимизнинг туб манфаатларини ифода этадиган ана шундай вазифаларни самарали ҳал этиш учун биз Янги Ўзбекистон стратегиясини ишлаб чиқдик ва уни бутун халқимиз билан биргаликда амалга оширамиз.

## I. ИЛМ ВА ИННОВАЦИЯЛАРГА АСОСЛАНГАН ЯНГИ ИҚТИСОДИЁТНИ БАРПО ЭТИШ

Келгуси беш йилда аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотни 1,6 баробар ошириш вазифаси олдимизда турибди. 2030 йилга бориб аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад 4 минг доллардан оширилади ва “даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар” каторига киришга пухта замин яратилади.

**Биринчидан**, келгуси беш йилда саноат маҳсулотлари ҳажмини 1,4 баробар ва меҳнат унумдорлигини камида 2 марта ошириш учун шароит яратамиз.

“Драйвер” соҳаларда “хомашёдан – тайёр маҳсулотгача” деган тамойил асосида саноат кластерлари тизими ривожлантирилади. Жумладан, мис саноати кластерини ташкил этиш орқали келгуси беш йилда мис ва бошқа маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажми 2 марта кўпаяди ҳамда 8 миллиард долларлик маҳсулот ишлаб чиқаришга асос яратилади.

Навоий, Олмалиқ ва Бекобод металлургия корхоналарида қатор йирик лойиҳалар амалга оширилади ва қўшимча 10 миллиард долларлик маҳсулотлар ишлаб чиқариш таъминланади.

Табиий газни қайта ишлаш даражасини 8 фоиздан 20 фоизга етказиш орқали кимё саноатида 2 миллиард долларлик маҳсулот ишлаб чиқарилади.

Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро, Қашқадарё, Фарғона ва Тошкент вилоятларида 5 та кимё технологияси кластерлари ташкил этилади ва уларда қарийб 7 миллиард долларлик 40 дан зиёд истиқболли лойиҳалар амалга оширилади.

Илм-фанни ривожлантириш асосида саноат тармоқларига энг замонавий технологияларни кенг жорий этиш дастурлари ишлаб чиқилади ва амалга оширилади.

Тошкентдаги Улуғбек шаҳарчасида кимё соҳасида илмий ва таълим кластери ташкил этилади.

Геология-қидирув ишлари ҳажми кескин оширилади, ерости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ ставкалари пасайтирилиб, соҳага хусусий инвесторлар ва илғор хорижий компаниялар кенг жалб қилинади.

**Иккинчидан,** рақамли иқтисодиёт асосий “драйвер” соҳага айлантирилиб, унинг ҳажмини камида 2,5 баробар оширишга қаратилган ишларни олиб борамиз.

Дастурий маҳсулотлар индустрияси ҳажми 5 марта, уларнинг экспорти эса 10 марта оширилиб, 500 миллион долларга етказилади.

Ҳар бир хонадон ва ижтимоий муассаса мақбул нархларда юқори тезликдаги Интернетга уланади, магистрал автомобиль йўллари 100 фоиз мобиль

алоқа ва Интернет билан қамраб олинади. Халқаро магистрал Интернет тезлиги – 5 баробар, туманлар-аро тармоқлар тезлиги – 8 баробар оширилади.

2022 йил якунига қадар “Фуқаролар эмас, ҳужжатлар ҳаракатланади” тамойили асосида барча давлат органларида иш юритиш ва аҳоли билан ҳужжат алмашиш тўлиқ электрон шаклга ўтказилади.

Электрон шаклдаги давлат хизматларининг улуши 100 фоизга етказилади. Жумладан, 700 дан ортиқ давлат хизматларидан 100 таси хусусий секторга ўтказилади.

**Учинчидан**, иқтисодиётда юқори ўсиш суръатларини сақлаб қолиш учун макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш эътиборимиз марказида бўлади.

2023 йил охиригача инфляция даражаси 5 фоизга туширилади. Давлат бюджети тақчиллиги ялпи ички маҳсулотга нисбатан 2,5 фоиздан ошмаслиги таъминланади.

2022 йилдан бошлаб ҳар бир туман бюджетининг камида 5 фоизи ёки 1,5–2 триллион сўм маблағ “Фуқаролар бюджети” дастури доирасида аҳолининг тақлифлари асосида энг долзарб муаммоларни ечишга сарфланади.

Мамлакатимизга янгидан жалб қилинадиган йиллик ташқи қарз миқдори 5 миллиард доллардан ошмаслиги таъминланади.

Юртимизга капитал олиб кириш бўйича мавжуд чекловлар қайта кўриб чиқилиб, барча учун қулай шароитлар яратилади ва фонд бозори ҳажми 7 миллиард долларга етказилади.

**Тўртинчидан**, хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб этиш Стратегияси қабул қилиниб, келгуси беш йилда 120 миллиард доллар, жумладан, камида 70 миллиард доллар хорижий инвестициялар жалб этиш чоралари кўрилади.

Давлат-хусусий шериклик асосида транспорт, йўл қурилиши, сув хўжалиги ва бошқа соҳаларга 14 миллиард доллар инвестиция жалб этилади.

Келгуси йилдан бошлаб асосий воситаларни амортизация қилишга солиқ имтиёзларини кенгайтириш орқали ҳар йили қарийб 2 триллион сўм маблағ тадбиркорлар ихтиёрида қолдирилади.

Худудларда саноат ва инфратузилмани ривожлантириш учун Ўзбекистон тараққиёт банки ташкил этилади.

**Бешинчидан**, мамлакатимизнинг экспорт салоҳиятини 1,7 баробар ошириш ва 2026 йилда 30 миллиард долларга етказиш режалаштирилмоқда.

Экспорт таркибида тайёр маҳсулотлар ҳажми 2,5 баробар кўпайтирилади. Европа давлатларига GSP+ тизими доирасида 2 мингдан зиёд турдаги тайёр маҳсулот экспорт қилиниши йўлга қўйилади.

“Янги Ўзбекистон – рақобатбардош маҳсулотлар юрти” ғояси асосида 200 та экспортчи очиқ танлов асосида сараланиб, улар етакчи экспортёрларга айлантирилади ва ҳар томонлама қўллаб-қувватланади.

**Олтинчидан**, хусусий секторнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини 80 фоизга, экспорт бўйича эса 60 фоизга етказиш юзасидан аниқ чора-тадбирларни кўрамиз.

Машинасозлик, кимё, нефть-газ, энергетика, кон-металлургия, транспорт каби тармоқлардаги 23 та йирик корхона халқаро кредит рейтингларини олиш орқали ички ва ташқи молиявий бозорларга мустақил чиқиб, инвестиция лойиҳалари учун ўзи маблағ жалб қиладиган бўлади.

Энергия ресурслари ва табиий газ бозорлари эркинлаштирилиб, соҳага хусусий инвестициялар кенг жалб қилинади ҳамда эҳтиёжманд аҳолини ҳимоя қилиш учун ижтимоий истеъмол нормалари киритилади. 2026 йилгача электр энергиясини ишлаб чиқариш ҳажми йилига қўшимча 30 миллиард киловатт соатга оширилиб, жами 100 миллиард киловатт соатга етказилади.

Банк тизимини трансформация қилиш орқали хусусий банкларнинг улуши жами банк активларининг 60 фоизига етказилади.



**Еттинчидан**, “яшил иқтисодиёт” технологиялари барча соҳаларга фаол жорий этилиб, иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини 20 фоизга ошириш, ҳавога чиқариладиган зарарли газлар ҳажмини 10 фоизга қисқартириш устувор вазифамиз бўлади.

Бунинг учун қуввати 5 минг мегаваттдан ортиқ бўлган шамол, қуёш ва гидро-электростанциялар ишга туширилиб, йилига қарийб 3 миллиард куб метр табиий газ тежаллади. Шунингдек, электромобиллар ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланишни рағбатлантириш бўйича алоҳида дастур қабул қилинади. 2022 йилда Тошкент шаҳрида жамоат транспорти йўналишларида 320 та электробус қатнови йўлга қўйилади.

“Яшил иқтисодиёт”ни ривожлантириш махсус жамғармаси ташкил этилади.

**Саккизинчидан**, йирик корхоналарда касбий таълим марказларини ташкил этиш, қурилиш материаллари, фармацевтика, тўқимачилик, нефть-кимё, электротехника каби етакчи соҳаларда хўжалик бирлашмалари ва лойиҳа институтлари билан биргаликда малакали мутахассислар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш чораларини кўрамиз.

## II. ФАОЛ ТАДБИРКОРЛИК ВА МАНЗИЛЛИ МОЛИЯВИЙ КЎМАК – КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Мамлакатимизда 2026 йил якунига қадар камбағалликни камида 2 баробар қисқартириш энг муҳим вазифаларимиздан бири бўлади.

**Биринчидан**, тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор қаратамиз.

Тадбиркорлар билан ўтказилган очиқ мулоқот доирасида шакллантирилган 7 та йўналиш бўйича 60 га яқин янги ташаббус ва таклифларни назарда тутувчи дастур амалга оширилади.

2022 йилдан бошлаб корхоналарнинг мол-мулк солиғи ставкаси 2 фоиздан 1,5 фоизга камайтирилиб, тадбиркорлар ихтиёрида 500 миллиард сўм маблағ қолдирилади.

2023 йилдан бошлаб қўшилган қиймат солиғи ставкаси 15 фоиздан 12 фоизга туширилади, юридик шахсларнинг мол-мулк ва ер солиқлари бирлаштирилиб, ягона кўчмас мулк солиғи жорий қилинади.

Банк, молия, телекоммуникация каби тадбиркорлик йўналишларида фойда солиғи ставкаси 20 фоиздан 15 фоизга туширилади ва барча тадбиркорлик субъектлари учун бир хил бўлади.

Йўл қурилиши, иссиқлик таъминоти, ободонлаштириш хизматлари сингари 25 та фаолият тури бўйича монополия тугатилиб, ушбу соҳаларда тадбиркорлар учун кенг йўл очилади.

Туман ва шаҳарлардаги тадбиркорликка кўмаклашадиган мавжуд тузилмалар негизида Тадбиркорлар кенгаши ташкил этилади.

**Иккинчидан**, ҳар бир фуқарога давлат ҳисобидан аниқ касб-ҳунарга ўқиш имкониятини яратамиз.

Касбга ўқитиш кўлами 2 баробар оширилиб, жами 1 миллион нафар ишсиз фуқаро касб-ҳунарларга ўқитилади ва бу жараёнда нодавлат таълим муассасаларининг иштироки 30 фоизга етказилади.

Касбий таълим билан тизимли равишда шуғулланиш масалалари тўлиқ равишда Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ихтиёрига ўтказилади.

Норасмий секторда ишлаётган 2,5 миллион нафар фуқаронинг бандлигини легаллаштиришга ёрдам бериш орқали уларнинг ижтимоий қафолат ва имтиёزلардан тўлиқ фойдаланишига имконият яратилади.

Худудларда сервис соҳалари кўламини кенгайтириш орқали хизмат кўрсатиш ҳажми 3 баробар оширилади ва бунинг эвазига 3,5 миллионга янги иш ўрни яратилади.

**Учинчидан,** жамиятда аёлларнинг маъқеини оширишга қаратилган сиёсатни изчил давом эттирамиз.

Хотин-қизларни ўқитиш, касб-ҳунар ва тадбиркорликка ўргатиш ва уларнинг ишлаши учун шароит яратиш орқали аёллар орасидаги ишсизлик даражаси 2 марта камайтирилади.

700 мингдан зиёд ишсиз хотин-қизлар давлат ҳисобидан касб-ҳунарга ўқитилади.

Эҳтиёжманд оилаларнинг қизлари учун олий таълим грантлари ҳар йили ошириб борилади ва 2026 йилга қадар 6 мингтага етказилади.

Келгуси уч йилда уй-жойга муҳтож 10 мингдан зиёд хотин-қизларга имтиёзли шартлар асосида уй-жойлар ажратилади.

**Тўртинчидан,** эҳтиёжманд аҳоли қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш борасидаги ишларни янги босқичга кўтариш устида жиддий иш олиб борамиз.

Эҳтиёжманд аҳолини ижтимоий нафақа ва моддий ёрдам билан таъминлаш даражаси 60 фоиздан 100 фоизга етказилиб, уларнинг барчаси давлат томонидан кафолатланган бепул тиббий ёрдам билан таъминланади.

Базавий пенсия ҳажмини ҳисоблашда иш ҳақининг чегаравий миқдори 10 баробардан 12 баробаргача кўпайтирилади.

Уй-жойга мухтож фуқароларга турар жойларни ижтимоий ижарага бериш тизими жорий этилади.

Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини 3 баробар оширишни кўзда тутувчи Миллий дастур ишлаб чиқилиб, амалга оширилади.

### III. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ – ИСЛОҲОТЛАРИМИЗ ТАЛАБИ

Қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадларини камида 2 баробар оширишга, қишлоқ хўжалигининг йиллик ўсиш суръатларини камида 5 фоизга етказишга алоҳида эътибор қаратамиз.

**Биринчидан**, қишлоқ хўжалигида давлат аралашувиға тўлиқ барҳам берилиб, маҳсулот ишлаб чиқаришни саноат босқичиға олиб чиқиш учун зарур чора-тадбирлар кўрилади.

Қишлоқ туманлари аниқ маҳсулотлар етиштиришға ихтисослаштирилиб, давлат томонидан деҳқонларни қўллаб-қувватлаш учун субсидиялар ажратилади.

Аграр тармоқдаги кластер корхоналари ва фермер хўжаликлари фаолиятини барқарор, қулай шарт ва муддатларда молиялаштириш ва суғурталашнинг мутлақо янги механизмлари жорий этилади.

Давлат идоралари томонидан нарх белгилаш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини мажбурий сотиб олиш тизими тўлиқ бекор қилиниб, эркин бозор муносабатлари жорий қилинади.

200 минг гектар пахта ва ғалла майдонлари қисқартирилиб, уларни аҳолига очиқ танлов асосида 10 сотихдан 1 гектаргача узоқ муддатли ижарага бериш тизими йўлга қўйилади.

**Иккинчидан**, экспортбоп маҳсулотлар етиштириш ҳамда мева-сабзавотчиликни ривожлантириш мақсадида янги ўзлаштириладиган 400 минг гектар ер майдонларини агрохўжаликларга очиқ танлов асосида ажратиш амалиёти йўлга қўйилади.

Интенсив боғлар 3 марта ва иссиқхоналар 2 марта кўпайтирилиб, экспорт салоҳиятини яна 1 миллиард долларга ошириш имконияти яратилади.

Тупроқ унумдорлигини ошириш ва муҳофаза қилиш бўйича алоҳида қонун ишлаб чиқилади.

**Учинчидан**, илм-фан ва инновацияга асосланган агрохизматлар кўрсатиш тизимини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар кўрамиз.

Худудларда агросаноат корхоналарини хомашё билан таъминлаш ва ишлаб чиқариш ҳажмини 1,5 баробар ошириш бўйича алоҳида дастур қабул қилинади.

Юртимизда агрологистика марказлари ва замонавий лабораториялар сони кўпайтирилади.

Уруғчилик, кўчат етиштириш ва чорва моллари зотларини яхшилаш бўйича миллий дастур амалга оширилади.

Юқори ҳосил берадиган ғўза ва ғалла навларини четдан олиб келиш ва эркин жойлаштиришга босқичма-босқич рухсат этилади.

Нуфузли халқаро илмий марказлар ва олий таълим муассасалари билан биргаликда Халқаро қишлоқ хўжалиги университети ташкил этилади.

**Тўртинчидан**, чорва учун озуқабоп экинлар майдонини икки баробардан зиёд ошириб, 340 минг гектардан 700 минг гектарга етказамиз.

11 миллион гектар яйловларни қайта тиклаб, ҳосилдорлигини ошириш чоралари кўрилади.

Гўшт, сут, тухум ва балиқ етиштириш ҳажми 1,5–2 марта кўпайтирилади.

**Бешинчидан**, сув ресурсларини бошқариш тизими тубдан ислоҳ қилинади ва йилига камида 7 миллиард куб метр сувни иқтисод қилиш бўйича алоҳида давлат дастури амалга оширилади. Ушбу мақсадлар учун келгуси беш йилда 2 миллиард доллар маблағ йўналтирилади.

## IV. СИФАТЛИ ТАЪЛИМ – ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҲАЛ ҚИЛУВЧИ ОМИЛИ

Узлуксиз таълим тизими учун миллий ўқув дастурини жорий этиш, таълим сифатини ошириш ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратамиз.

**Биринчидан**, мактабгача таълимдаги қамров даражаси 80 фоизга етказилиб, 7 мингдан зиёд янги мактабгача таълим муассасалари ташкил этиш биз учун долзарб вазифа ҳисобланади.

2024 йил якунига қадар 6 ёшли болалар мактабгача тайёрлов тизими билан тўлиқ қамраб олинади.

Мактабгача таълим тизими ходимларининг ойлик маошлари босқичма-босқич ошириб борилади. Бундан кўзланган асосий мақсадимиз – етти ёшгача бўлган бирорта ҳам бола мактабга чиққунига қадар эътиборсиз ва билимсиз қолмаслиги керак.

**Иккинчидан**, янги мактаблар қуриш, хусусий мактабларни кўпайтириш ва таълим сифатини оширишни назарда тутувчи Мактабларни ривожлантириш давлат дастурини жорий этиш орқали халқ таълими тизимида қўшимча 1,2 миллион ўқувчи ўрни яратилади.



2026 йилга қадар ўқув дастурлари ва дарсликлар илғор хорижий тажриба асосида тўла қайта ишланиб, амалда жорий этилади.

**Учинчидан**, олий таълим тизимида қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини ошириш эътиборимиз марказида бўлади.

Талабаларнинг яшаш шароитини яхшилаш мақсадида қарийб 100 минг ўринли талабалар турар жойлари барпо этилади.

Давлат олий таълим муассасалари томонидан босқичма-босқич меҳнатга ҳақ тўлаш, ходимлар сони, тўлов-контракт миқдори ва таълим шаклини мустақил белгилаш амалиёти йўлга қўйилади ва улар учун ижтимоий солиқ ставкаси 12 фоизга туширилади.

2026 йилгача хусусий олий таълим ташкилотлари сони камида 50 тага етказилиб, уларда таълим олаётган талабаларга ҳам 7 йиллик таълим кредитини олиш имконияти яратилади.

“Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали ёшларни нуфузли хорижий олий таълим ташкилотларидаги бакалавриат, магистратура ва докторантурага юбориш қўлами 2 марта оширилади.

**Тўртинчидан**, таълимнинг барча босқичидаги муассасалар ва уларнинг ходимлари – боғча тарбиячиси, мактаб муаллими, профессор-ўқитувчилар ва илмий-иждодий зиёлилар ҳар томонлама қўллаб-қувватланади.

Докторантурага қабул давлат буюртмаси ва манфаатдор ташкилотлар маблағлари ҳисобидан тўлов грантлари асосида жорий этилади.

Олимпия ва миллий спорт турлари бўйича **ҳар икки йилда ўтказиладиган умумреспублика спорт ўйинлари – Миллий олимпиада** тизими жорий этилади.

Умуман, таълим-тарбия ва спорт соҳасида изчил давом эттириладиган ислохотлар Янги Ўзбекистоннинг ҳақиқий бунёдкорларини камолга етказишга хизмат қилади.

## **V. АҲОЛИ САЛОМАТЛИГИ – БЕБАҲО БОЙЛИГИМИЗ**

Соғлиқни сақлаш тизимида юксак натижадорликка эришиш, аҳоли ўртасида касалликларни камайтириш, соғлом турмуш тарзини фаол тарғиб қилиш ва ўртача умр кўриш даражасини ошириш энг муҳим вазифаларимиздан бири бўлади.

**Биринчидан**, тиббиёт соҳасига ажратиладиган маблағлар 2 баробар оширилиб, асосий эътибор хонадонбай тиббий профилактикага қаратилади ва бу орқали бирламчи бўгин томонидан халқимизга малакали тиббий хизмат кўрсатиш сифатини яхшилашга эришилади.

Репродуктив ёшдаги ва ҳомиладор аёллар, болалар учун юқори технологик тиббий ёрдам кўрсатиш тизими такомиллаштирилиб, биринчи босқичда 46 та туманлараро перинатал марказлар барпо этилади.

Ногиронлиги бўлган болаларни соғломлаштириш учун Республика болалар тиббий реабилитация маркази ва унинг филиаллари ташкил этилади.

**Иккинчидан**, тиббий хизматларда хусусий секторнинг улуши 25 фоизга етказилиши ва уларни қўллаб-қувватлаш давом эттирилиши учун тегишли шароитлар яратамиз.

11 та тиббиёт олий таълим муассасаси трансформация қилиниб, уларнинг қошида клиникалар ташкил этилади ҳамда ўқитувчиларнинг хорижда тизимли малака ошириши йўлга қўйилади.

**Учинчидан**, юртимизда ишлаб чиқариладиган дори-дармон ва тиббиёт воситалари уларнинг умумий ҳажмида 80 фоизга етиши учун зарур чора-тадбирларни кўрамиз.

Ушбу тармоқдаги ишлаб чиқарувчиларга берилган имтиёзлар узайтирилиб, замонавий фармацевтика зоналари ҳамда кластерлари ташкил этилади, мавжудлари эса янада ривожлантирилади.

Санитария-эпидемиология хизматининг халқаро мақомга эга 250 дан зиёд лабораториялари ташкил этилади.

## VI. ХУДУДЛАРНИ МУТАНОСИБ РИВОЖЛАНТИРИШ – МАМЛАКАТИМИЗ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ГАРОВИ

Худудларни мутаносиб ривожлантиришни устувор йўналиш сифатида белгилаганмиз.

**Биринчидан**, туман ва шаҳарлар кесимида 14 та беш йиллик ҳудудий дастурларни амалга ошириш чораларини кўрамиз. Бунда ҳар бир туман ва шаҳарнинг муаммо ва имкониятлари ўрганилиб, “ўсиш нуқталари” белгилаб олинади. Уларга мувофиқ, аниқ режа ва лойиҳалар шакллантирилади.

**Иккинчидан**, худудларда аҳолининг яшаш шароитини яхшилаш учун урбанизация сиёсатини янада такомиллаштирамиз.

18 та катта, 22 та ўрта ва 80 та кичик шаҳарлар ўртасида транспорт-логистика тизими ва муҳандислик-коммуникация инфратузилмасини ривожлантириш дастурлари амалга оширилади.

Самарқанд ва Наманган келгуси беш йилда аҳоли сони миллион нафарни ташкил этадиган шаҳарларга айлантирилади. 450 минг аҳолига мўлжалланган Янги Андижон шаҳрининг дастлабки бир нечта мавзелари қурилиб, фойдаланишга топширилади.

Реновация дастурлари асосида шаҳарларда эскирган уйлар ўрнига 19 миллион квадрат метрдан ортиқ замонавий уй-жойлар барпо этилади, 275 мингдан зиёд оила янги массивларга кўчиб ўтиши учун шароит яратилади.

**Учинчидан**, оғир экологик шароитга қарамасдан, мамлакатимиз тараққиётига муносиб ҳисса қўшиб келаётган Қорақалпоғистон Республикасининг барча шаҳар, туман ва овуллари комплекс тарзда ривожлантириш, меҳнаткаш ва матонатли, оқкўнгил ва бағрикенг қорақалпоқ элининг ҳаётини обод ва фаровон этишга ҳар қачонгидан ҳам устувор аҳамият қаратамиз.

**Тўртинчидан**, Тошкент шаҳрини аҳолига қулай, экологик тоза ва яшаш учун барча имкониятлар мавжуд бўлган ҳудудга айлантириш борасидаги ишларни давом эттирамиз.

Азим пойтахтимизда жамоат транспорти тизими тубдан қайта кўриб чиқилади, 3 минг километр ички йўллар янгиланади ва 10 та замонавий кўприк қурилади. Кўкаламзорлаштириш даражаси 30 фоизга етказилиб, 9 та жамоат парки, 20 та хиёбон, 250 километр велосипед ва пиёдалар йўлакчалари қурилади. Оқова сувини тозалаш тизими шаҳар ҳудудидан ташқарига чиқарилиб, давлат-хусусий шериклик асосида янги иншоотлар барпо этилади.

**Бешинчидан,** “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурлари доирасида худудларнинг “ўсиш нуқталари”дан келиб чиқиб, муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма объектларини қуришга алоҳида эътибор қаратамиз.

70 минг километр магистрал ва паст кучланишли электр тармоқлари, 22 мингдан ортиқ трансформатор ҳамда 100 дан зиёд подстанция қурилади ва янгиланади. 70 минг километрдан зиёд автомобиль йўллари, 15 минг километрдан ортиқ ичимлик суви ва 1 минг километр оқова сув тармоқлари барпо этилади.

Аҳолини марказлашган ичимлик суви билан таъминлаш даражаси 87 фоизга етказилади. 32 та йирик шаҳарлар ва 155 та туман марказларида оқова сув тизимлари янгиланади. Маиший чиқиндиларни йиғиш 100 фоизга, уни қайта ишлаш даражаси 21 фоиздан 50 фоизга етказилади.

**Олтинчидан,** 2026 йилда Ўзбекистонга келадиган хорижий туристлар сонини 9 миллионга етказишни режалаштирмамиз.

Самарқанд халқаро аэропорти йирик транспорт хабига айлантирилади. “Абадий шаҳар” тарихий мажмуасини ўз ичига олган “Самарқанд туризм маркази” ташкил этилади.

“Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг” дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сони келгусида ҳар йили 12 миллион нафардан оширилади.

Қорақалпоғистон Республикаси ва Оролбўйида экотуризмни ривожлантириш бўйича алоҳида дастур амалга оширилади. Бунда Мўйноқнинг янги аэропорти имкониятларидан кенг фойдаланилади.

Юртимиздаги 8 мингдан ортиқ маданий мерос объектларидан самарали фойдаланиш бўйича давлат дастури қабул қилинади.

2026 йилгача туризм соҳасида банд бўлган аҳоли сони 2 баробар оширилиб, 520 минг нафарга етказилади.

Туризм ва маданий мерос объектлари инфратузилмасини ривожлантиришга ҳар йили 1 триллион сўм маблағ ажратилади.

**Еттинчидан**, транспорт соҳасида Тошкент ва йирик шаҳарлар ўртасида кунлик қатновлар бўйича узоғи билан 6–7 соатда манзилга етиб бориш ва қайтиб келиш имкониятини яратамиз.

Темир йўллارни электрлаштириш даражаси 40 фоиздан 60 фоизга оширилади. Тошкент – Урганч йўналиши бўйича тезюрар поездлар қатнови йўлга қўйилади. Юк ташиш харажатлари камида 30 фоизга камайтирилади, транзит ҳажми 15 миллион тоннага етказилади.

**Саккизинчидан**, хонадон, кўча, маҳалла, қишлоқ ва шаҳарларда йўл бўйлари ва дала четларига ҳар йили камида 200 миллион туп дарахтлар экиш, ҳудудларимиз иқлимига мос кўчатларни етиштириш, суғориш ҳамда парвариш қилиш тизими асосида “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси амалга оширилишига устувор аҳамият берамиз.

Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар марказларида “Янги Ўзбекистон боғи” намунаси асосида камида 50 гектар майдонда “яшил боғлар” барпо этилади. Шаҳарлар ва туман марказларида ҳар 50–100 минг аҳоли учун “яшил жамоат парклари” ташкил этилади.

Дарахтларни ноқонуний кесишга муддатсиз мораторий жорий қилиниб, парклар ва “яшил зоналар” ҳудудини бошқа мақсадлар учун ишлатиш қатъиян тақиқланади.

**Тўққизинчидан**, Орол денгизининг қуриган тубида қўшимча 500 минг гектар яшил майдонлар барпо этилиб, уларнинг умумий ҳажми 2,5 миллион гектарга ёки ҳудуднинг 78 фоизига етказиш вазифаси олдимизда турибди.

Оролбўйида халқаро “Яшил иқлим” ва “Глобал экологик жамғарма”ларининг биохилма-хиллик, иқлим ўзгариши ва тупроқ емирилишининг олдини олишга қаратилган дастурлари асосида 300 миллион долларлик лойиҳалар амалга оширилади.



## VII. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ХАЛҚЧИЛ ВА ИНСОНПАРВАР ДАВЛАТ

Мамлакатимиз тараққиётининг бугунги янги босқичида ихчам, профессионал, халқимиз талабларига жавоб берадиган, адолатли, юқори натижадорликка йўналтирилган давлат бошқаруви тизимини шакллантириш муҳим вазифамиз бўлади.

**Биринчидан,** маҳалла – жамоатчилик бошқаруви ва назоратининг том маънода таянч бўғинига айланиши учун барча шароитларни яратамиз.

Маҳалла тизимининг ҳуқуқ ва ваколатлари кенгайтирилиб, молиялаштириш манбалари ва тартиби такомиллаштирилади. Маҳаллада фуқаролар учун давлат ва ижтимоий хизматлардан фойдаланиш, давлат органларига маҳалладан туриб мурожаат қилиш имконияти яратилади.

**Иккинчидан,** туман, шаҳар ҳамда вилоят даражасида вакиллик ва ижро ҳоқимияти тизимини қайта кўриб чиқиш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Туман ва шаҳар халқ депутатлари Кенгашларида камида 2–3 нафар депутат доимий асосда ишлайдиган тартиб жорий этилади. Маҳалла муаммоларини доимий ўрганиб, бартараф этишда маҳаллий депутатларнинг фаол иштироқи таъминланади.

Туман ва шаҳар ҳоқими лавозимига номзод тегишли Кенгашда энг кўп депутатлик ўрнини эгаллаган партия гуруҳи томонидан илгари сурилиши амалиёти йўлга қўйилади.

Ҳокимликка номзод халқ депутати Кенгашида ҳудудни ривожлантириш бўйича ўз дастурини ҳимоя қилиб, лавозимга тасдиқланиши тартиби жорий этилади.

Ичимлик ва оқова суви, ички йўллар, бошқа инфратузилма объектларини қуриш, бандлик дастурини тасдиқлаш туман ва шаҳар халқ депутатлари Кенгашлари ваколатига ўтказилади.

Келгуси йилдан бошлаб эксперимент тариқасида 28 та туман ва шаҳарда ҳудудни ривожлантириш ва муаммоларни ҳал қилиш бўйича ҳокимликларнинг ваколат ва имкониятлари кенгайтирилади.

Худудий ижро идораларининг ваколатлар реестри шакллантирилади, такрорланадиган 500 дан ортиқ функциялар мақбуллаштирилади.

2022 йилдан бошлаб боғча, мактаб, соғлиқни сақлаш объектларини қуриш ва таъмирлашга ажратиладиган маблағларни тақсимлаш ваколати вилоятларга берилади.

**Учинчидан**, барча бўғиндаги ижро идоралари раҳбарлари бир йиллик иш дастури ва амалга

оширадиган лойиҳаларини жамоатчиликка очик эълон қилиб борадиган тизимни йўлга қўйиш учун зарур чораларни кўрамиз.

Давлат органлари штатларини оширишга чекловлар ўрнатади. Рақамлаштириш ва қатор функцияларни хусусий секторга бериш ҳисобидан амалдаги штатлар қисқартириб борилади.

Вазирлик, идора ва хўжалик бирлашмалари ҳамда маҳаллий ижро ҳокимияти органлари фаолияти танқидий қайта кўриб чиқилади.

**Тўртинчидан**, кадрлар давлат хизматида танлов асосида қабул қилиниши, узлуксиз малака ошириш, самарадорликни баҳолаш ва лавозим бўйича ўсишнинг аниқ мезонлари белгиланиши учун имкониятларимизни тўлиқ сафарбар этамиз.

Иш вақти ва меҳнат меъёрлари бўйича талаблар қайта кўриб чиқилади.

**Бешинчидан**, ижтимоий соҳа объектларини қуриш, “Обод қишлоқ”, “Обод маҳалла”, ҳудудий инфратузилма дастурлари доирасидаги лойиҳалар очик эълон қилиниб, кенг жамоатчилик фикри асосида ишлаб чиқиладиган тизим яратамиз.

Субсидия, грант ва ижтимоий буюртмалар ажратиш орқали нодавлат нотижорат ташкилотларини қўллаб-қувватлаш ҳажмини 2 баробар оширамиз.

Оммавий ахборот воситаларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, журналистларнинг эркин фаолият юритиши учун имкониятларни кенгайтирамиз.

**Олтинчидан**, халқ қабулхоналарининг ҳуқуқий мақоми оширилади.

“Халқчил давлат” миллий дастури қабул қилинади.

Ҳуқуқ ижодкорлиги ва ҳуқуқни қўллаш фаолиятини ўрганиш асосида “Ўзбекистон Республикаси қонунчилигини ривожлантириш концепцияси” ишлаб чиқилади.

## **VIII. АДОЛАТ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ – ХАЛҚПАРВАР ДАВЛАТ ПОЙДЕВОРИ**

Одил судлов, инсон қадр-қиммати ва ҳуқуқлари олий қадрият сифатида суд-ҳуқуқ соҳасидаги ишхотларимизнинг асосий мазмуни бўлади.

**Биринчидан**, мансабдор шахсларнинг қарорлари устидан берилган шикоятларни кўриб чиқиш тизимини такомиллаштириш доирасида маъмурий судларнинг ваколатларини кенгайтиришга алоҳида урғу берилади. Уларга давлат органлари томонидан етказилган зарарни қоплаш ва бошқа ҳуқуқий оқибатларга оид масалаларни ҳал қилиш ваколатлари берилади.

Қарор ноқонуний эмаслигини маъмурий судда исботлаш мажбурияти уни қабул қилган мансабдор шахснинг ўзига юклатилиб, улар маъмурий суд қарорини бажармаган тақдирда “ошиб борадиган” жарима ва бошқа ҳуқуқий чораларни қўллаш тартиби киритилади.

**Иккинчидан**, фуқаро ва тадбиркорларнинг овора бўлишига чек қўйиш мақсадида, иш фуқаролик, иқтисодий ёки маъмурий судга тааллуқли бўлишидан қатъи назар, ариза “ягона дарча” асосида қабул қилиниб, ваколатли суд томонидан ҳал этилиши учун зарур имкониятларни яратамиз.

**Учинчидан**, прокуратура фаолиятини фуқароларнинг кадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликларини самарали ҳимоя қилишга йўналтиришни устувор аҳамиятга эга вазифа сифатида қараймиз.

“Қонун – устувор, жазо – муқаррар” тамойили прокуратура органлари фаолиятининг бош мезони бўлади. Бунинг учун мамлакатимизда қонунийликни қатъий таъминлайдиган, очиқ ва адолатли прокуратура тизимининг янги ҳуқуқий асослари яратилади.

**Тўртинчидан**, ички ишлар органларини халққа ва ҳар бир оилага янада яқинлаштириш, бу тизимни чин маънода халқчил тузилмага айлантириш борасида бошланган ислохотларни изчил давом эттирамиз.

Ички ишлар органлари фаолиятини баҳолашда аҳоли муаммоларини ҳал этиш ва фуқаролар мурожаатлари билан ишлаш самарадорлиги асосий мезон этиб белгиланади. Ички ишлар вазирлиги тизимининг барча бўғинларида Жамоатчилик кенгашлари тузилади.

Тизимда ходимларнинг ўз хизмат бурчига нисбатан масъулият ҳиссини ошириш мақсадида “Қасбий маданият кодекси” қабул қилиниб, соҳани маънавий пок, ўз бурчига содиқ, халқпарвар ва масъулиятли ходимлар билан тўлдириб боришга алоҳида эътибор қаратилади.

**Бешинчидан**, либераллаштириш сиёсатининг мантиқий давоми сифатида ўз аҳамиятини йўқотган 10 га яқин қилмишларни жиноят тоифасидан чиқариш ва жазони енгиллаштирадиган ҳолатлар сонини амалдаги 9 тадан 15 тагача кўпайтириш чоралари кўрилади.

Гумон билан ушлаб турилган шахсларни ҳисобга олишнинг ягона электрон реестри яратилиб, маълумотлар реестрга киритилмаган ҳолларда ушлаб туриш ноқонуний деб топилиши бўйича тартиб жорий этилади.

**Олтинчидан**, коррупцияга қарши курашишда давлат ва жамиятнинг барча куч ва воситаларини сафарбар этамиз.

Давлат хизматчиларининг даромадлари ва мол-мулки ҳақидаги маълумотларни декларация қилиш тизими босқичма-босқич жорий этилади.

Коррупцияга йўл қўйган шахсларнинг очиқ реестри юритилиб, уларнинг давлат хизматига кириши, масъул лавозимларга номзоди кўрсатилиши чекланади.

Давлат харидлари, давлат мулкани сотиш жараёнлари тўлиқ очиқ тарзда ташкил этилади ва бунга кенг жамоатчилик жалб қилинади.

**Еттинчидан**, давлат ҳисобидан ижтимоий ҳимояга муҳтож фуқароларга бепул юридик ёрдам нафақат жиноят ишлари бўйича, балки фуқаролик ва маъмурий ишлар бўйича ҳам кўрсатиладиган тизимни жорий этамиз.

Адвокатура соҳасига ёш кадрларни жалб этиш мақсадида юридик стаж ҳақидаги талаб бекор қилинади.

## **IX. ХАВФСИЗЛИК ВА ОЧИҚ, ПРАГМАТИК ФАОЛ ТАШҚИ СИЁСАТ БОРАСИДАГИ УСТУВОР ВАЗИФАЛАР**

Дунёдаги ҳозирги мураккаб вазият, қўшни минтақалардаги зиддият ва қуроли низолар Ўзбекистон Республикасининг хавфсизлиги ва тинчлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратишни тақозо этмоқда.

Бугун Куролли Кучларимиз ҳар қандай ташқи хавф-хатарларга, турли тажовуз ва таҳдидларга қатъий зарба беришга қодир бўлган яхлит ва ишончли кучга айланмоқда.

Мамлакатимиз мудофаа салоҳияти ва ҳарбий қудратини янада мустаҳкамлаш, чуқур ўйланган ва ўзаро манфаатли ташқи сиёсат юритиш бўйича аниқ ва манзилли ишларни давом эттирамиз.

**Биринчидан**, Куролли Кучларнинг жанговар шайлиги, имкониятлари ва қобилиятини кучайтиришга қаратилган дастурларни ишлаб чиқиб, амалга ошириш чораларини кўрамиз.

Мамлакатимизнинг ҳаво ҳужумидан ҳимоя тизими давр талабларидан келиб чиқиб, янада кучайтирилади.

Чегараларимиз хавфсизлиги замонавий коммуникация воситалари ва техник иншоотларни кенг қўллаш орқали янада мустаҳкамланади.

Ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзоларини ижтимоий ҳимоя қилиш ҳар томонлама кучайтирилади.

**Иккинчидан**, тизимли ва пухта ўйланган, прагматик ташқи сиёсий ва иқтисодий дипломатияни фаол давом эттирамиз.

Ўзбекистоннинг Марказий Осиё бўйича минтақавий ҳамкорлик стратегияси ишлаб чиқилиб, унда қуйидаги масалаларга алоҳида урғу берилади:



ўзаро савдо айланмаси ҳажмини камида 2 баробар ошириш;

саноатда қўшимча қиймат яратиш бўйича яхлит занжирларни ва кооперацияни мустаҳкамлаш;

транспорт соҳасида ташқи савдо учун “яшил коридорлар” ҳамда транзит имкониятларини кенгайтириш;

халқ дипломатияси тамойилини, жумладан, илм-фан, таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, спорт ва туризм соҳаларидаги алоқаларни кучайтириш.

Россия, Хитой ва АҚШ, шунингдек, Туркия, Ҳиндистон, Покистон, Германия, Франция, Буюк Британия, Жанубий Корея, Япония, Бирлашган Араб Амирликлари каби анъанавий ҳамкорларимиз билан муносабатларни янада ривожлантириш, ташқи алоқаларимиз географиясини кенгайтиришга устувор аҳамият қаратилади.

Янги бозорларни ўзлаштириш, инвестиция ва инновацияларни кенг жалб қилиш, сайёҳлар оқимини кўпайтириш ва энг муҳими, Ўзбекистон имижини фаол тарғиб этиш дипломатик ваколатхоналарнинг асосий вазифасига айланади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти органлари ва институтлари, глобал ва минтақавий иқтисодий, молиявий ва гуманитар ташкилотлардаги фаолияти-миз кучайтирилади.

Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш ва Евроосиё иқтисодий иттифоқи билан интеграция жараёнларини чуқурлаштириш бўйича аниқ амалий қадамлар қўйилади.

**Учинчидан**, қўшни Афғонистон заминида тинчлик ва осойишталикни таъминлашга, жафокаш афғон халқига қўлимиздан келган барча ёрдамни аямаймиз.

“Термиз – Мозори Шариф – Кобул – Пешовар” темир йўлини қуриш ҳамда энергетика, савдо ва саноат соҳаларидаги стратегик ва муҳим лойиҳалар ҳамкорликда амалга оширилади.

**Тўртинчидан**, “Ватандошлар” жамоат фонди орқали хорижий давлатлардаги юртдошларимиз билан доимий ва самарали алоқалар ўрнатамиз.

Асосий вазифаси хорижий мамлакатларда ўзбек тили, маданияти ва миллий анъаналаримизни кенг оммалаштириш, гуманитар алоқаларни мустаҳкамлашдан иборат бўлган Алишер Навоий халқаро институтини ташкил этамиз.

## **Х. МАДАНИЙ-МАЪНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТ САРИ**

Янги Ўзбекистонни юксак маданият ва маънавиятга эга бўлган, эркин ва бахтли инсонлар яшайдиган мамлакатга айлантириш учун барча куч ва имкониятларни сафарбар этамиз.

**Биринчидан**, маънавий-ахлоқий қадриятлари-мизни давр талабларига мос равишда бойитиш ва ривожлантириш, шу орқали жамиятнинг маданий-маърифий юксалишига эришишга қаратилган “Янги Ўзбекистон – маърифатли жамият” концепцияси ва уни амалга ошириш миллий дастурини ишлаб чиқиш чораларини кўрамиз.

**Иккинчидан**, аҳоли, айниқса, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти ва дунёқарашини юксалтириш, ватанпарварлик, халққа муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол авлодни тарбиялаш бўйича чора-тадбирлар самарадорлигини кучайтириш бўйича ишларни давом эттирамиз.

**Учинчидан**, илм-фан, маданият ва санъат, адабиёт ва бадиий ижод соҳаларининг мамлакатимиз тараққиётидаги ўрни ва таъсирини янада оширишга қаратилган дастурларни қабул қилишга алоҳида эътибор қаратамиз.

Кекса авлод вакилларига – ижодкор зиёлиларга доимий эътибор қаратиш, уларни моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, меҳнат ва яшаш шароитларини яхшилашга қаратилган ишлар ушбу соҳадаги сиёсатимизнинг муҳим йўналишлари сифатида янада кучайтирилади.

Маданият ва спорт муассасалари, театр ва музейларнинг моддий-техник базасини янада яхшилаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилади.

Худудларимизнинг маданий юксалиши, халқ хунармандчилигини раванқ топтиришга қаратилган самарали ва манзилли ишлар тизимли асосда олиб борилади.

**Тўртинчидан**, мамлакатимизда диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлаш, фуқароларимизни турли мафкуравий таҳдидлардан, зарарли оқим ва ғоялардан ҳимоя қилиш масалалари бундан буён ҳам устувор тарзда диққатимиз марказида бўлади.

Бой диний ва маънавий меросимизни чуқур ўрганиш ва кенг тарғиб этиш мақсадида Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Ислом цивилизацияси халқаро маркази, Имом Бухорий, Имом Термизий каби илмий-маърифий марказлар имкониятлари кенг ишга солинади.

Юртимизда яшаётган барча миллат ва элат вакиллари ўртасида ўзаро ҳурмат ва ҳамжиҳатлик муҳитини мустаҳкамлаш, турли диний конфессиялар учун зарур шароитлар яратишга қаратилган сиёсатимиз изчил давом эттирилади.

### **Азиз ва муҳтарам ватандошларим!**

Биз сайловолди дастуримизда белгиланган устувор йўналишлардан келиб чиқиб ишлаб чиқилган **Янги Ўзбекистон стратегияси**, ҳеч шубҳасиз,

Сиз томонингиздан, жамоатчилигимиз, халқимиз томонидан билдириладиган фикрлар, таклиф ва ташаббуслар асосида янада бойитилади. Шу тариқа Стратегияни ҳар томонлама қайта кўриб чиқиб, барчамиз биргаликда амалга оширамиз!

**Азизларим, барчангизни Янги Ўзбекистон учун, Янги Ўзбекистон стратегияси учун овоз беришга чақираман.**

Ишончим комил, Сизларнинг таклиф ва ташаббусларингиз, қўллаб-қувватлашингиз, сайловолди учрашувларида ва сайлов кунндаги фаол иштирокингиз ҳамда қатъий фуқаролик позициянгиздан ушбу Стратегия беқиёс куч-қудрат олиб, бутун халқимизни Янги Ўзбекистон ғояси атрофида бирлаштирадиган умуммиллий дастур ва ҳаракатга айланади.

Ҳеч қачон унутманг, сайлаш ва танлаш ҳуқуқи – Сизнинг қўлингизда, келажак учун масъулият – барчамизнинг зиммамизда!

Ана шундай буюк ҳиссиёт, ишонч-эътиқод билан ҳаракат қилсак, биздан халқимиз ҳам, келажак авлодлар ҳам албатта рози бўлади.



**O'ZLIDEP**

Shavkat Miromonovich  
Mirziyoyevning

**TARJIMAYI HOLI**

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 1957-yil 24-iyulda Jizzax viloyatining Zomin tumanida shifokor oilasida tugʻilgan. Millati – oʻzbek. Oliy maʼlumotli, 1981-yili Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tamomlagan. Muhandis-mexanik mutaxassisligiga ega. Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Mehnat faoliyatini 1981-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida kichik ilmiy xodimlikdan boshlab, katta oʻqituvchi, dotsent, oʻquv ishlari boʻyicha prorektor lavozimlarida ishlagan.

1990-yilda Respublika Oliy Soveti deputati etib saylanib, Mandat komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat yuritgan.

1992-yilda Toshkent shahar Mirzo Ulugʻbek tumani hokimi, 1996–2001-yillarda Jizzax viloyati hokimi, 2001–2003-yillarda Samarqand viloyati hokimi lavozimlarida xizmat qilgan. Ijro hokimiyatidagi faoliyati bilan bir paytda 1995–2003-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida qonunchilik jarayonida ham faol ishtirok etgan.

Sh.M.Mirziyoyev 2003-yilda Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tasdiqlanib, 2016-yilga qadar samarali faoliyat yuritgan.

2016-yil dekabr oyidan hozirgi vaqtga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Vatanimizga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilib kelmoqda.

Sh.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimida faoliyat yuritgan davrda uning konseptual g‘oyalari asosida ishlab chiqilgan O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida beqiyos o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shu davrda 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod Prezident farmoni va qarorlari qabul qilindi.

Sh.M. Mirziyoyevning sa‘y-harakatlari bilan “Davlat – insonlar uchun” degan xalqchil g‘oya asosida davlat boshqaruvining samarali va barqaror tizimi yaratildi. Davlat organlarining xalqqa bevosita xizmat qilishi ustuvor tamoyil etib belgilangani natijasida aholining bandligi oshdi, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at sohalari tubdan isloh qilindi, keksa avlod vakillari, ayollar va yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

Davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy mulk daxlsizligini, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim dasturlar izchil amalga oshirildi. Mamlakatimizda tinchlik va



barqarorlikni, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, o'zaro manfaatli pragmatik tashqi siyosat olib borish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Valutaning erkin konvertatsiyasi ta'minlandi, majburiy mehnat barham topdi, ko'p yillar aholini qiynab kelgan "propiska" tizimi tubdan isloh qilindi.

So'nggi besh yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholining turmush darajasi yaxshilanib, mamlakatimiz iqtisodiyoti 24 foizga, sanoat 34 foizga, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 3 barobarga o'sdi. O'rtacha oylik ish haqi 2,2 marta ko'paydi.

Sh.M.Mirziyoyevning qat'iy irodasi va yuksak tashkilotchilik salohiyati tufayli xalqni rozi qilish, kambag'alli-kni kamaytirish vazifasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ushbu muammoni yechishda o'ziga xos yondashuv va ish uslublari shakllandi. "Temir", "ayollar", "yoshlar" va "mehr" daftarlari asosida aniq reja va dasturlar ishlab chiqildi va ular bugungi kunda hayotga faol joriy etilmoqda.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston ulkan bunyodkorlik va obodonchilik mamlakatiga aylandi.

2017-yilda Manas qishlog‘idan boshlangan qurilish va obodonchilik ishlari umummilliy harakatga aylanib, butun yurtimizni qamrab oldi. Bugun eng chekka va olis hududlardagi minglab aholi maskanlari ham yangicha qiyofa va chiroy kasb etmoqda.

Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekistonga rahbarlik qilgan davrda aholi uchun uy-joylar qurilishi ko‘lami 2016-yilga nisbatan 10 barobar oshdi, 140 mingdan ziyod arzon va sifatli uy-joylar bunyod etildi.

O‘tgan besh yil mamlakatimizning nafaqat ichki, balki tashqi siyosatini ham tubdan o‘zgartirgan, jahon ahliga Yangi O‘zbekistonni kashf etgan davr bo‘ldi.

Sh.M. Mirziyoyev oilali, ikki qizi, bir o‘g‘li, olti nafar nabirasi bor. Rafiqasi Z.M. Mirziyoyeva “Zamin” fondi vasiylik kengashi raisi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sh.M.Mirziyoyev davlat va boshqaruv organlaridagi ko‘p yillik samarali mehnati, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun “Mehnat shuhrati” va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan.

Shuningdek, u turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yo‘lidagi katta xizmatlari uchun bir qator xorijiy mamlakatlarning yuksak davlat mukofotlariga ham sazovor bo‘lgan.





**O'ZLIDEP**

SHAVKAT MIROMONOVICH  
MIRZIYOYEVNING

## **SAYLOVOLDI DASTURI**

---

YANGI O'ZBEKISTON – INSON QADRI  
USTUVOR BO'LGAN JAMIYAT VA  
XALQPARVAR DAVLATDIR

## **Muhtaram vatandoshlar!**

Jonajon Vatanimiz – O‘zbekistonimiz buyuk o‘zgarishlar arafasida turibdi. Dunyo miqyosida global tinchlik va barqarorlikka, insoniyat tomonidan necha ming yillar davomida yaratilgan qadriyat va an‘analarga qarshi tahdid va xatarlar kuchayib, turli davlatlar o‘rtasida raqobat tobora shafqatsiz tus olayotgan, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan hozirgi g‘oyat murakkab va mas‘uliyatli davrda o‘z oldimizga aniq strategik maqsadlar qo‘yib, istiqbol rejalarini belgilab olish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Biz shu maqsadda Yangi O‘zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik. Shu yil 24-oktabrda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi ana shu Strategiyani xalqimiz muhokamasidan o‘tkazish, yangi fikr va g‘oyalar bilan boyitish va muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng katta imkoniyat, deb bilamiz.**

Hech shubhasiz, mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan besh yilda yaratilgan, davlatimizning inson uchun, xalq uchun

ochilishi, aholi bilan bevosita muloqot qilish, uning muammolarini ijobiy hal etishga qaratilgan mutlaqo yangi siyosiy-ijtimoiy tizim biz uchun bu yoʻlda mustahkam zamin boʻlib xizmat qiladi.

Biz bu jarayonda quyidagi ichki va tashqi omillarni hisobga olish albatta shart va zarur, deb hisoblaymiz:

**birinchidan**, 2026-yilga borib mamlakatimiz aholisi soni 38 milliondan oshishi kutilmoqda;

**ikkinchidan**, aholimizning qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etmoqda va har yili mehnat bozoriga kamida 600 ming yoshlar kirib kelmoqda;

**uchinchidan**, dunyo miqyosida iqtisodiyotning tarkibi keskin oʻzgarib, raqamli va biotexnologiyalar, sunʼiy intellekt kabi sohalar shiddat bilan hayotimizdan oʻrin egallamoqda, iqtisodiyot rivojini uskunalar emas, balki zamonaviy bilim va innovatsiyalar belgilamoqda;

**toʻrtinchidan**, keskin iqlim oʻzgarishlari yuz berib, suv resurslari kamayib bormoqda, bu esa dunyo miqyosida qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi salomatligi va daromadlariga jiddiy xavf solmoqda;

**beshinchidan**, xalqaro maydondagi va mintaqamizdagi ziddiyatlar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi xavf-xatarlar koʻlami kengayib bormoqda.

Ana shunday keskin vaziyatda el-yurtimiz bizdan yangi reja va dasturlarni amalga oshirishni kutayotganini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz. Shuning uchun xalqimizning ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida:

yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash;

fuqarolar va millatlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash;

xalqimizning ma'naviy dunyosini yanada yuksaltirish;

O'zbekistonda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir vatandoshimizning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya etish, kafolatli daromad manbai, tibbiy xizmatlar va uy-joy, sifatli ta'lim bilan ta'minlash;

kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish;

mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'e'tibori va nufuzini oshirish biz uchun eng muhim va ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

El-yurtimizning tub manfaatlarini ifoda etadigan ana shunday vazifalarni samarali hal etish uchun biz Yangi O'zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik va uni butun xalqimiz bilan birgalikda amalga oshiramiz.

## I. ILM VA INNOVATSIYALARGA ASOSLANGAN YANGI IQTISODIYOTNI BARPO ETISH

Kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 barobar oshirish vazifasi oldimizda turibdi. 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 4 ming dollardan oshiriladi va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirishga puxta zamin yaratiladi.

**Birinchidan**, kelgusi besh yilda sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 barobar va mehnat unumdorligini kamida 2 marta oshirish uchun sharoit yaratamiz.

“Drayver” sohalarda “xomashyodan – tayyor mahsulotgacha” degan tamoyil asosida sanoat klasterlari tizimi rivojlantiriladi. Jumladan, mis sanoati klasterini tashkil etish orqali kelgusi besh yilda mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2 marta ko‘payadi hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarishga asos yaratiladi.

Navoiy, Olmaliq va Bekobod metallurgiya korxonalarida qator yirik loyihalar amalga oshiriladi va qo‘shimcha 10 milliard dollarlik mahsulotlar ishlab chiqarish ta‘minlanadi.

Tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqariladi.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida 5 ta kimyo texnologiyasi klasterlari tashkil etiladi va ularda qariyb 7 milliard dollarlik 40 dan ziyod istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi.

Ilm-fanni rivojlantirish asosida sanoat tarmoqlariga eng zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Toshkentdagi Ulug‘bek shaharchasida kimyo sohasida ilmiy va ta‘lim klasteri tashkil etiladi.

Geologiya-qidiruv ishlari hajmi keskin oshiriladi, yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari pasaytirilib, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalar keng jalb qilinadi.

**Ikkinchidan**, raqamli iqtisodiyot asosiy “drayver” sohaga aylantirilib, uning hajmini kamida 2,5 barobar oshirishga qaratilgan ishlarni olib boramiz.

Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmi 5 marta, ularning eksporti esa 10 marta oshirilib, 500 million dollarga yetkaziladi.

Har bir xonadon va ijtimoiy muassasa maqbul narxlarda yuqori tezlikdagi Internetga ulanadi, magistral avtomobil yo‘llari 100 foiz mobil aloqa va Internet bilan qamrab olinadi. Xalqaro magistral Internet tezligi – 5 barobar, tumanlararo tarmoqlar tezligi – 8 barobar oshiriladi.

2022-yil yakuniga qadar “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyili asosida barcha davlat organlarida ish yuritish va aholi bilan hujjat almashish to‘liq elektron shaklga o‘tkaziladi.

Elektron shakldagi davlat xizmatlarining ulushi 100 foizga yetkaziladi. Jumladan, 700 dan ortiq davlat xizmatlaridan 100 tasi xususiy sektorga o‘tkaziladi.

**Uchinchidan**, iqtisodiyotda yuqori o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

2023-yil oxirigacha inflyatsiya darajasi 5 foizga tushiriladi. Davlat budjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,5 foizdan oshmasligi ta‘minlanadi.

2022-yildan boshlab har bir tuman budjetining kamida 5 foizi yoki 1, 5–2 trillion so‘m mablag‘ “Fuqarolar budjeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflanadi.

Mamlakatimizga yangidan jalb qilinadigan yillik tashqi qarz miqdori 5 milliard dollardan oshmasligi ta‘minlanadi.

Yurtimizga kapital olib kirish bo‘yicha mavjud cheklovlar qayta ko‘rib chiqilib, barcha uchun qulay sharoitlar yaratiladi va fond bozori hajmi 7 milliard dollarga yetkaziladi.

**To‘rtinchidan**, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish Strategiyasi qabul qilinib, kelgusi besh yilda 120 milliard dollar, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb etish choralari ko‘riladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida transport, yo‘l qurilishi, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard dollar investitsiya jalb etiladi.

Kelgusi yildan boshlab asosiy vositalarni amortizatsiya qilishga soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali har yili qariyb 2 trillion so‘m mablag‘ tadbirkorlar ixtiyorida qoldiriladi.

Hududlarda sanoat va infratuzilmani rivojlantirish uchun O‘zbekiston taraqqiyot banki tashkil etiladi.

**Beshinchidan**, mamlakatimizning eksport salohiyatini 1,7 barobar oshirish va 2026-yilda 30 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar hajmi 2,5 barobar ko‘paytiriladi. Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida 2 mingdan ziyod turdagi tayyor mahsulot eksport qilinishi yo‘lga qo‘yiladi.

“Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida 200 ta eksportchi ochiq tanlov asosida saralanib, ular yetakchi eksportyorlarga aylantiriladi va har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi.

**Oltinchidan**, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga, eksport bo'yicha esa 60 foizga yetkazish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ko'ramiz.

Mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metallurgiya, transport kabi tarmoqlardagi 23 ta yirik korxonalar xalqaro kredit reytinglarini olish orqali ichki va tashqi moliyaviy bozorlarga mustaqil chiqib, investitsiya loyihalari uchun o'zi mablag' jalb qiladigan bo'ladi.

Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlari erkinlashtirilib, sohaga xususiy investitsiyalar keng jalb qilinadi hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalari kiritiladi. 2026-yilgacha elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi yiliga qo'shimcha 30 milliard kilovatt soatga oshirilib, jami 100 milliard kilovatt soatga yetkaziladi.

Bank tizimini transformatsiya qilish orqali xususiy banklarning ulushi jami bank aktivlarining 60 foiziga yetkaziladi.

**Yettinchidan**, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalari barcha sohalarga faol joriy etilib, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish ustuvor vazifamiz bo'ladi.

Buning uchun quvvati 5 ming megavatt dan ortiq bo'lgan shamol, quyosh va gidro-elektrostansiyalar ishga tushirilib, yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. Shuningdek, elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi. 2022-yilda Toshkent shahrida jamoat transporti yo'nalishlarida 320 ta elektrobust qatnovi yo'lga qo'yiladi.

“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish maxsus jamg'ar-masi tashkil etiladi.

**Sakkizinchidan**, yirik korxonalarda kasbiy ta'lim markazlarini tashkil etish, qurilish materiallari, farma-sevtika, to'qimachilik, neft-kimyoy, elektrotexnika kabi yetakchi sohalarda xo'jalik birlashmalari va loyiha institutlari bilan birgalikda malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish choralarini ko'ramiz.

## **II. FAOL TADBIRKORLIK VA MANZILLI MOLIYAVIY KO'MAK – KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI**

Mamlakatimizda 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 barobar qisqartirish eng muhim vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Birinchiidan, tadbirkorlikni yanada qo'llab- quvvatlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqot doirasida shakllantirilgan 7 ta yo'nalish bo'yicha 60 ga yaqin yangi tashabbus va takliflarni nazarda tutuvchi dastur amalga oshiriladi.

2022-yildan boshlab korxonalarining mol-mulk solig'i stavkasi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirilib, tadbirkorlar ixtiyorida 500 milliard so'm mablag' qoldiriladi.

2023-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushiriladi, yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari birlashtirilib, yagona ko'chmas mulk solig'i joriy qilinadi.

Bank, moliya, telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushiriladi va barcha tadbirkorlik subyektlari uchun bir xil bo'ladi.

Yo'l qurilishi, issiqlik ta'minoti, obodonlashtirish xizmatlari singari 25 ta faoliyat turi bo'yicha monopoliya tugatilib, ushbu sohalarda tadbirkorlar uchun keng yo'l ochiladi.

Tuman va shaharlardagi tadbirkorlikka ko'maklashadigan mavjud tuzilmalar negizida Tadbirkorlar kengashi tashkil etiladi.

Ikkinchidan, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratamiz.

Kasbga o'qitish ko'lami 2 barobar oshirilib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaro kasb-hunarlariga o'qitiladi va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtiroki 30 foizga yetkaziladi.

Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalari to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkaziladi.

Norasmiy sektorda ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularning ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanishiga imkoniyat yaratiladi.

Hududlarda servis sohalari ko'lamini kengaytirish orqali xizmat ko'rsatish hajmi 3 barobar oshiriladi va buning evaziga 3,5 millionta yangi ish o'rni yaratiladi.

Uchinchidan, jamiyatda ayollarning mavqeini oshirishga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiramiz.

Xotin-qizlarni o'qitish, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish va ularning ishlashi uchun sharoit yaratish orqali ayollar orasidagi ishsizlik darajasi 2 marta kamaytiriladi.

700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlar davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitiladi.

Ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun oliy ta'lim grantlari har yili oshirib boriladi va 2026-yilga qadar 6 mingtaga yetkaziladi.

Kelgusi uch yilda uy-joyga muhtoj 10 mingdan ziyod xotin-qizlarga imtiyozli shartlar asosida uy-joylar ajratiladi.

To'rtinchidan, ehtiyojmand aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish ustida jiddiy ish olib boramiz.

Ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan ta'minlash darajasi 60 foizdan 100 foizga yetkazilib, ularning barchasi davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan ta'minlanadi.

Bazaviy pensiya hajmini hisoblashda ish haqining chegaraviy miqdori 10 barobardan 12 barobargacha ko'paytiriladi.

Uy-joyga muhtoj fuqarolarga turar joylarni ijtimoiy ijaraga berish tizimi joriy etiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini 3 barobar oshirishni ko'zda tutuvchi Milliy dastur ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.



### III. QISHLOQ XO'JALIGIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH – ISLOHOTLARIMIZ TALABI

Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadlarini kamida 2 barobar oshirishga, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atlarini kamida 5 foizga yetkazishga alohida e'tibor qaratamiz.

**Birinchidan**, qishloq xo'jaligida davlat aralashuviga to'liq barham berilib, mahsulot ishlab chiqarishni sanoat bosqichiga olib chiqish uchun zarur chora-tadbirlar ko'riladi.

Qishloq tumanlari aniq mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashtirilib, davlat tomonidan dehqonlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar ajratiladi.

Agrar tarmoqdagi klaster korxonalari va fermer xo'jaliklari faoliyatini barqaror, qulay shart va muddatlarda moliyalashtirish va sug'urtalashning mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etiladi.

Davlat idoralari tomonidan narx belgilash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini majburiy sotib olish tizimi to'liq bekor qilinib, erkin bozor munosabatlari joriy qilinadi.

200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, ularni aholiga ochiq tanlov asosida 10 sotixdan 1 gektargacha uzoq muddatli ijaraga berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

**Ikkinchidan**, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish maqsadida yangi o'zlashtiriladigan 400 ming gektar yer maydonlarini agroxo'jaliklarga ochiq tanlov asosida ajratish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Intensiv bog'lar 3 marta va issiqxonalar 2 marta ko'paytirilib, eksport salohiyatini yana 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish bo'yicha alohida qonun ishlab chiqiladi.

**Uchinchidan**, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxiizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'ramiz.

Hududlarda agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Yurtimizda agrologistika markazlari va zamonaviy laboratoriyalar soni ko'paytiriladi.

Urug'chilik, ko'chat yetishtirish va chorva mollari zotlarini yaxshilash bo'yicha milliy dastur amalga oshiriladi.

Yuqori hosil beradigan g'oz va g'alla navlarini chetdan olib kelish va erkin joylashtirishga bosqichma-bosqich ruxsat etiladi.

Nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti tashkil etiladi.

**To'rtinchidan**, chorva uchun ozuqabop ekinlar maydonini ikki barobardan ziyod oshirib, 340 ming gektardan 700 ming gektarga yetkazamiz.

11 million gektar yaylovlarni qayta tiklab, hosildorligini oshirish choralari ko'riladi.

Go'sht, sut, tuxum va baliq yetishtirish hajmi 1,5–2 marta ko'paytiriladi.

**Beshinchidan**, suv resurslarini boshqarish tizimi tubdan isloh qilinadi va yiliga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturi amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun kelgusi besh yilda 2 milliard dollar mablag' yo'naltiriladi.

#### **IV. SIFATLI TA'LIM – INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING HAL QILUVCHI OMILI**

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun milliy o'quv dasturini joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratamiz.

**Birinchi**dan, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasi 80 foizga yetkazilib, 7 mingdan ziyod yangi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish biz uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

2024-yil yakuniga qadar 6 yoshli bolalar maktabgacha tayyorlov tizimi bilan to'liq qamrab olinadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining oylik maoshlari bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadimiz – yetti yoshgacha bo'lgan birorta ham bola maktabga chiqquniga qadar e'tiborsiz va bilimsiz qolmasligi kerak.

**Ikkinchi**dan, yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish va ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi Maktablarni rivojlantirish davlat dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratiladi.

2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklar ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ishlanib, amalda joriy etiladi.

**Uchinchi**dan, oliy ta'lim tizimida qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Talabalarning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylari barpo etiladi.

Davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan bosqichma-bosqich mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyoti yo'lga qo'yiladi va ular uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizga tushiriladi.

2026-yilgacha xususiy oliy ta'lim tashkilotlari soni kamida 50 taga yetkazilib, ularda ta'lim olayotgan talabalarga ham 7 yillik ta'lim kreditini olish imkoniyati yaratiladi.

“El-yurt umidi” jamg'armasi orqali yoshlarni nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotlaridagi bakalavriat, magistratura va doktoranturaga yuborish ko'lami 2 marta oshiriladi.

**To'rtinchidan**, ta'limning barcha bosqichidagi muassasalar va ularning xodimlari – bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

Doktoranturaga qabul davlat buyurtmasi va manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov grantlari asosida joriy etiladi.

Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha **har ikki yilda** o'tkaziladigan **umumrespublika sport o'yinlari – Milliy olimpiada** tizimi joriy etiladi.

Umuman, ta'lim-tarbiya va sport sohasida izchil davom ettiriladigan islohotlar Yangi O'zbekistonning haqiqiy bunyodkorlarini kamolga yetkazishga xizmat qiladi.

## V. AHOLI SALOMATLIGI – BEBAHO BOYLIGIMIZ

Sog'liqni saqlash tizimida yuksak natijadorlikka erishish, aholi o'rtasida kasalliklarni kamaytirish, sog'lom turmush tarzini faol targ'ib qilish va o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirish eng muhim vazifalarimizdan biri bo'ladi.

**Birinchidan**, tibbiyot sohasiga ajratiladigan mablag'lar 2 barobar oshirilib, asosiy e'tibor xonadonbay tibbiy profilaktikaga qaratiladi va bu orqali birlamchi bo'g'in tomonidan xalqimizga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga erishiladi.

Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimi takomillashtirilib, birinchi bosqichda 46 ta tumanlararo perinatal markazlar barpo etiladi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish uchun Respublika bolalar tibbiy reabilitatsiya markazi va uning filiallari tashkil etiladi.

**Ikkinchidan**, tibbiy xizmatlarda xususiy sektorning ulushi 25 foizga yetkazilishi va ularni qo'llab-quvvatlash davom ettirilishi uchun tegishli sharoitlar yaratamiz.

11 ta tibbiyot oliy ta'lim muassasasi transformatsiya qilinib, ularning qoshida klinikalar tashkil etiladi hamda o'qituvchilarning xorijda tizimli malaka oshirishi yo'lga qo'yiladi.

**Uchinchidan**, yurtimizda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalari ularning umumiy hajmida 80 foizga yetishi uchun zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz.

Ushbu tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilarga berilgan imtiyozlar uzaytirilib, zamonaviy farmatsevtika zonalari hamda klasterlari tashkil etiladi, mavjudlari esa yanada rivojlantiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining xalqaro maqomga ega 250 dan ziyod laboratoriyalari tashkil etiladi.

## **VI. HUDUDLARNI MUTANOSIB RIVOJLANTIRISH – MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTINING GAROVI**

Hududlarni mutanosib rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaganmiz.

**Birinchi**dan, tuman va shaharlar kesimida 14 ta besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish choralarini ko‘ramiz. Bunda har bir tuman va shaharning muammo va imkoniyatlari o‘rganilib, “o‘sish nuqtalari” belgilab olinadi. Ularga muvofiq, aniq reja va loyihalar shakllantiriladi.

**Ikkinchi**dan, hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtiramiz.

18 ta katta, 22 ta o‘rta va 80 ta kichik shaharlar o‘rtasida transport-logistika tizimi va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari amalga oshiriladi.

Samarqand va Namangan kelgusi besh yilda aholi soni million nafarni tashkil etadigan shaharlarga aylantiriladi. 450 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelari qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Renovatsiya dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylar barpo etiladi, 275 mingdan ziyod oila yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratiladi.

**Uchinchi**dan, og‘ir ekologik sharoitga qaramasdan, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib



kelayotgan Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha shahar, tuman va ovullarini kompleks tarzda rivojlantirish, mehnatkash va matonatli, oqko‘ngil va bag‘rikeng qoraqalpoq elining hayotini obod va farovon etishga har qachongidan ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

**To‘rtinchidan**, Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lgan hududga aylantirish borasidagi ishlarni davom ettiramiz.

Azim poytaxtimizda jamoat transporti tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqiladi, 3 ming kilometr ichki yo‘llar yangilanadi va 10 ta zamonaviy ko‘prik quriladi. Ko‘kalamzorlashtirish darajasi 30 foizga yetkazilib, 9 ta jamoat parki, 20 ta xiyobon, 250 kilometr velosiped va piyodalar yo‘lakchalari quriladi. Oqova suvini tozalash tizimi shahar hududidan tashqariga chiqarilib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlar barpo etiladi.

**Beshinchidan**, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarning “o‘sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e‘tibor qaratamiz.

70 ming kilometr magistral va past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 mingdan ortiq transformator hamda

100 dan ziyod podstansiya quriladi va yangilanadi. 70 ming kilometrdan ziyod avtomobil yo'llari, 15 ming kilometrdan ortiq ichimlik suvi va 1 ming kilometr oqova suv tarmoqlari barpo etiladi.

Aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 87 foizga yetkaziladi. 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlari yangilanadi. Maishiy chiqindilarni yig'ish 100 foizga, uni qayta ishlash darajasi 21 foizdan 50 foizga yetkaziladi.

**Oltinchidan,** 2026-yilda O'zbekistonga keladigan xorijiy turistlar sonini 9 millionga yetkazishni rejalashtirmoqdamiz.

Samarqand xalqaro aeroporti yirik transport xabiga aylantiriladi. "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan "Samarqand turizm markazi" tashkil etiladi.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar soni kelgusida har yili 12 million nafardan oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orolbo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Bunda Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Yurtimizdagi 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinadi.

2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi soni 2 barobar oshirilib, 520 ming nafarga yetkaziladi.

Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 1 trillion so'm mablag' ajratiladi.

**Yettinchidan**, transport sohasida Toshkent va yirik shaharlar o'rtasida kunlik qatnovlar bo'yicha uzog'i bilan 6–7 soatda manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratamiz.

Temir yo'llarni elektrlashtirish darajasi 40 foizdan 60 foizga oshiriladi. Toshkent – Urganch yo'nalishi bo'yicha tezyurar poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yiladi. Yuk tashish xarajatlari kamida 30 foizga kamaytiriladi, tranzit hajmi 15 million tonnaga yetkaziladi.

**Sakkizinchidan**, xonadon, ko'cha, mahalla, qishloq va shaharlarda yo'l bo'ylari va dala chetlariga har yili kamida 200 million tup daraxtlar ekish, hududlarimiz iqlimiga mos ko'chatlarni yetishtirish, sug'orish hamda parvarish qilish tizimi asosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilishiga ustuvor ahamiyat beramiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida "Yangi O'zbekiston bog'i" namunasi asosida

kamida 50 gektar maydonda “yashil bog‘lar” barpo etiladi. Shaharlar va tuman markazlarida har 50–100 ming aholi uchun “yashil jamoat parklari” tashkil etiladi.

Daraxtlarni noqonuniy kesishga muddatsiz moratoriy joriy qilinib, parklar va “yashil zonalar” hududini boshqa maqsadlar uchun ishlatish qat’iyan taqiqlanadi.

**To‘qqizinchidan**, Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlar barpo etilib, ularning umumiy hajmi 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish vazifasi oldimizda turibdi.

Orolbo‘yida xalqaro “Yashil iqlim” va “Global ekologik jang‘arma”larining bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi.

## **VII. YANGI O‘ZBEKISTON – XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT**

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ixcham, professional, xalqimiz talablariga javob beradigan, adolatli, yuqori natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish muhim vazifamiz bo‘ladi.

**Birinchi**dan, mahalla – jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tom ma'noda tayanch bo'g'iniga aylanishi uchun barcha sharoitlarni yaratamiz.

Mahalla tizimining huquq va vakolatlari kengaytirilib, moliyalashtirish manbalari va tartibi takomillashtiriladi. Mahallada fuqarolar uchun davlat va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, davlat organlariga mahalladan turib murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

**Ikkinchi**dan, tuman, shahar hamda viloyat darajasida vakillik va ijro hokimiyati tizimini qayta ko'rib chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarida kamida 2–3 nafar deputat doimiy asosda ishlaydigan tartib joriy etiladi. Mahalla muammolarini doimiy o'rganib, bartaraf etishda mahalliy deputatlarning faol ishtiroki ta'minlanadi.

Tuman va shahar hokimi lavozimiga nomzod tegishli Kengashda eng ko'p deputatlik o'rnini egallagan partiya guruhi tomonidan ilgari surilishi amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Hokimlikka nomzod xalq deputati Kengashida hududni rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini himoya qilib, lavozimga tasdiqlanishi tartibi joriy etiladi.

Ichimlik va oqova suvi, ichki yo'llar, boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, bandlik dasturini tasdiqlash tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari vakolatiga o'tkaziladi.

Kelgusi yildan boshlab eksperiment tariqasida 28 ta tuman va shaharda hududni rivojlantirish va muammolarni hal qilish bo'yicha hokimliklarning vakolat va imkoniyatlari kengaytiriladi.

Hududiy ijro idoralarining vakolatlar reyestri shakllantiriladi, takrorlanadigan 500 dan ortiq funksiyalar maqbullashtiriladi.

2022-yildan boshlab bog'cha, maktab, sog'liqni saqlash obyektlarini qurish va ta'mirlashga ajratiladigan mablag'larni taqsimlash vakolati viloyatlarga beriladi.

**Uchinchidan**, barcha bo'g'indagi ijro idoralari rahbarlari bir yillik ish dasturi va amalga oshiradigan loyihalarini jamoatchilikka ochiq e'lon qilib boradigan tizimni yo'lga qo'yish uchun zarur choralarni ko'ramiz.

Davlat organlari shtatlarini oshirishga cheklovlar o'rnatiladi. Raqamlashtirish va qator funksiyalarni xususiy sektorga berish hisobidan amaldagi shtatlar qisqartirib boriladi.

Vazirlik, idora va xo‘jalik birlashmalari hamda mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati tanqidiy qayta ko‘rib chiqiladi.

**To‘rtinchidan**, kadrlar davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilinishi, uzluksiz malaka oshirish, samaradorlikni baholash va lavozim bo‘yicha o‘sishning aniq mezonlari belgilanishi uchun imkoniyatlarimizni to‘liq safarbar etamiz.

Ish vaqti va mehnat me‘yorlari bo‘yicha talablar qayta ko‘rib chiqiladi.

**Beshinchidan**, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, hududiy infratuzilma dasturlari doirasidagi loyihalar ochiq e‘lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqiladigan tizim yaratamiz.

Subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar ajratish orqali nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash hajmini 2 barobar oshiramiz.

Ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyatlarni kengaytiramiz.

**Oltinchidan**, xalq qabulxonalarining huquqiy maqomi oshiriladi.

“Xalqchil davlat” milliy dasturi qabul qilinadi.

Huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatini o'rganish asosida "O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqiladi.

## VIII. ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI – XALQPARVAR DAVLAT POYDEVORI

Odil sudlov, inson qadr-qimmati va huquqlari oliy qadriyat sifatida sud-huquq sohasidagi islohotlarimizning asosiy mazmuni bo'ladi.

**Birinchidan**, mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish doirasida ma'muriy sudlarning vakolatlarini kengaytirishga alohida urg'u beriladi. Ularga davlat organlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash va boshqa huquqiy oqibatlariga oid masalalarni hal qilish vakolatlari beriladi.

Qaror noqonuniy emasligini ma'muriy sudda isbotlash majburiyati uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o'ziga yuklatilib, ular ma'muriy sud qarorini bajarmagan taqdirda "oshib boradigan" jarima va boshqa huquqiy choralarni qo'llash tartibi kiritiladi.

**Ikkinchidan**, fuqaro va tadbirkorlarning ovora bo'lishiga chek qo'yish maqsadida, ish fuqarolik,



iqtisodiy yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, ariza "yagona darcha" asosida qabul qilinib, vakolatli sud tomonidan hal etilishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratamiz.

**Uchinchidan**, prokuratura faoliyatini fuqarolarning qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirishni ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qaraymiz.

"Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar" tamoyili prokuratura organlari faoliyatining bosh mezonini bo'ladi. Buning uchun mamlakatimizda qonuniylikni qat'iy ta'minlaydigan, ochiq va adolatli prokuratura tizimining yangi huquqiy asoslari yaratiladi.

**To'rtinchidan**, ichki ishlar organlarini xalqqa va har bir oilaga yanada yaqinlashtirish, bu tizimni chin ma'noda xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida boshlangan islohotlarni izchil davom ettiramiz.

Ichki ishlar organlari faoliyatini baholashda aholi muammolarini hal etish va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligi asosiy mezon etib belgilanadi. Ichki ishlar vazirligi tizimining barcha bo'g'inlarida Jamoatchilik kengashlari tuziladi.

Tizimda xodimlarning o'z xizmat burchiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish maqsadida "Kasbiy

madaniyat kodeksi” qabul qilinib, sohani ma’naviy pok, o‘z burchiga sodiq, xalqparvar va mas’uliyatli xodimlar bilan to‘ldirib borishga alohida e’tibor qaratiladi.

**Beshinchidan**, liberallashtirish siyosatining mantiqiy davomi sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan 10 ga yaqin qilmishlarni jinoyat toifasidan chiqarish va jazoni yengillashtiradigan holatlar sonini amaldagi 9 tadan 15 tagacha ko‘paytirish choralari ko‘riladi.

Gumon bilan ushlab turilgan shaxslarni hisobga olishning yagona elektron reyestri yaratilib, ma’lumotlar reyestrga kiritilmagan hollarda ushlab turish noqonuniy deb topilishi bo‘yicha tartib joriy etiladi.

**Oltinchidan**, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalarini safarbar etamiz.

Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki haqidagi ma’lumotlarni deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Korrupsiyaga yo‘l qo‘ygan shaxslarning ochiq reestri yuritilib, ularning davlat xizmatiga kirishi, mas’ul lavozimlarga nomzodi ko‘rsatilishi cheklanadi.

Davlat xaridlari, davlat mulkini sotish jarayonlari to‘liq ochiq tarzda tashkil etiladi va bunga keng jamoatchilik jalb qilinadi.

**Yettinchidan,** davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordam nafaqat jinoyat ishlari bo'yicha, balki fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham ko'rsatiladigan tizimni joriy etamiz.

Advokatura sohasiga yosh kadrlarni jalb etish maqsadida yuridik staj haqidagi talab bekor qilinadi.

## **IX. XAVFSIZLIK VA OCHIQ, PRAGMATIK FAOL TASHQI SIYOSAT BORASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR**

Dunyodagi hozirgi murakkab vaziyat, qo'shni mintaqalardagi ziddiyat va qurolli nizolar O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va tinchligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Bugun Qurolli Kuchlarimiz har qanday tashqi xavf-xatarlarga, turli tajovuz va tahdidlarga qat'iy zarba berishga qodir bo'lgan yaxlit va ishonchli kuchga aylanmoqda.

Mamlakatimiz mudofaa salohiyati va harbiy qudratini yanada mustahkamlash, chuqur o'ylangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat yuritish bo'yicha aniq va manzilli ishlarni davom ettiramiz.

**Birinchi**dan, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi, imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqib, amalga oshirish choralari ko'ramiz.

Mamlakatimizning havo hujumidan himoya tizimi davr talablaridan kelib chiqib, yanada kuchaytiriladi.

Chegaralarimiz xavfsizligi zamonaviy kommunikatsiya vositalari va texnik inshootlarni keng qo'llash orqali yanada mustahkamlanadi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish har tomonlama kuchaytiriladi.

**Ikkinchi**dan, tizimli va puxta o'ylangan, pragmatik tashqi siyosiy va iqtisodiy diplomatiyani faol davom ettiramiz.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasi ishlab chiqilib, unda quyidagi masalalarga alohida urg'u beriladi:

o'zaro savdo aylanmasi hajmini kamida 2 barobar oshirish;

sanoatda qo'shimcha qiymat yaratish bo'yicha yaxlit zanjirlarni va kooperatsiyani mustahkamlash;

transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish;

xalq diplomatiyasi tamoyilini, jumladan, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish.

Rossiya, Xitoy va AQSH, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi an'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalarimiz geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Yangi bozorlarni o'zlashtirish, investitsiya va innovatsiyalarni keng jalb qilish, sayyohlar oqimini ko'paytirish va eng muhimi, O'zbekiston imijini faol targ'ib etish diplomatik vakolatxonalarining asosiy vazifasiga aylanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatimiz kuchaytiriladi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha aniq amaliy qadamlar qo'yiladi.

**Uchinchidan**, qo'shni Afg'oniston zaminida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga, jafokash afg'on xalqiga qo'limizdan kelgan barcha yordamni ayamaymiz.

“Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temir yo‘lini qurish hamda energetika, savdo va sanoat sohalaridagi strategik va muhim loyihalar hamkorlikda amalga oshiriladi.

**To‘rtinchidan**, “Vatandoshlar” jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o‘rnatamiz.

Asosiy vazifasi xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tili, madaniyati va milliy an‘analarimizni keng ommalash-tirish, gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan Alisher Navoiy xalqaro institutini tashkil etamiz.

## **X. MADANIY-MA’NAVIY TARAQQIYOT SARI**

Yangi O‘zbekistonni yuksak madaniyat va ma’naviyatga ega bo‘lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

**Birinchidan**, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy-ma’rifiy yuksalishiga erishishga qaratilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqish choralarini ko‘ramiz.

**Ikkinchidan**, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuygʻusi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash boʻyicha chora-tadbirlar samaradorligini kuchaytirish boʻyicha ishlarni davom ettiramiz.

**Uchinchidan**, ilm-fan, madaniyat va sanʼat, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi oʻrni va taʼsirini yanada oshirishga qaratilgan dasturlarni qabul qilishga alohida eʼtibor qaratamiz.

Keksa avlod vakillariga – ijodkor ziyolilarga doimiy eʼtibor qaratish, ularni moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar ushbu sohadagi siyosatimizning muhim yoʻnalishlari sifatida yanada kuchaytiriladi.

Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash boʻyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Hududlarimizning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan samarali va manzilli ishlar tizimli asosda olib boriladi.

**Toʻrtinchidan**, mamlakatimizda diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlikni taʼminlash, fuqarolarimizni

turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham ustuvor tarzda diqqatimiz markazida bo'ladi.

Boy diniy va ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi xalqaro markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi ilmiy-ma'rifiy markazlar imkoniyatlari keng ishga solinadi.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan siyosatimiz izchil davom ettiriladi.

### **Aziz va muhtaram vatandoshlarim!**

Biz saylovoldi dasturimizda belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib ishlab chiqilgan **Yangi O'zbekiston strategiyasi**, hech shubhasiz, Siz tomoningizdan, jamoatchiligimiz, xalqimiz tomonidan bildiriladigan fikrlar, taklif va tashabbuslar asosida yanada boyitiladi. Shu tariqa Strategiyani har tomonlama qayta ko'rib chiqib, barchamiz birgalikda amalga oshiramiz!

**Azizlarim, barchangizni Yangi O'zbekiston uchun, Yangi O'zbekiston strategiyasi uchun ovoz berishga chaqiraman.**



Ishonchim komil, Sizlarning taklif va tashabbuslaringiz, qo'llab-quvvatlashingiz, saylovoldi uchrashuvlarida va saylov kunidagi faol ishtirokingiz hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyangizdan ushbu Strategiya beqiyos kuch-qudrat olib, butun xalqimizni Yangi O'zbekiston g'oyasi atrofida birlashtiradigan umummilliy dastur va harakatga aylanadi.

Hech qachon unutmang, saylash va tanlash huquqi – Sizning qo'lingizda, kelajak uchun mas'uliyat – barchamizning zimmamizda!

Ana shunday buyuk hissiyot, ishonch-e'tiqod bilan harakat qilsak, bizdan xalqimiz ham, kelajak avlodlar ham albatta rozi bo'ladi.



**O'ZLIDER**

## **БИОГРАФИЯ**

Шавката Миромоновича  
Мирзиёева

Шавкат Миромонович Мирзиёев родился 24 июля 1957 года в Зааминском районе Джизакской области в семье врача. По национальности – узбек. Образование – высшее, в 1981 году окончил Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства. Получил специальность инженера-механика. Кандидат технических наук, доцент.

Начал трудовую деятельность в 1981 году младшим научным сотрудником в Ташкентском институте инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства, работал старшим преподавателем, доцентом, проректором по учебной части.

В 1990 году избран депутатом Верховного Совета республики, был председателем Мандатной комиссии.

С 1992 года работал в должности хокима Мирзо-Улугбекского района города Ташкента, в 1996-2001 годах – хокима Джизакской области, в 2001-2003 годах – хокима Самаркандской области. Работая в органах исполнительной власти, одновременно в 1995-2003 годах в качестве депутата Олий Мажлиса Республики Узбекистан активно участвовал в законотворческом процессе.

Ш.М. Мирзиёев в 2003 году был утвержден Премьер-министром Республики Узбекистан и плодотворно трудился на этом посту до 2016 года.

С декабря 2016 года по настоящее время является Президентом Республики Узбекистан, самоотверженно и преданно служит Родине.

В период деятельности Ш.М. Мирзиёева на посту Президента осуществлены огромные преобразования в рамках реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Узбекистана, разработанной на основе его концептуальных идей. За это время было принято около 300 законов, свыше 4 тысяч указов и постановлений Президента.

Благодаря усилиям Ш.М. Мирзиёева создана эффективная и устойчивая система государственного управления на основе принципа «Государство – для человека». В результате воплощения в жизнь приоритета – государственные органы должны служить народу – повысилась занятость населения, кардинально реформированы сферы науки, образования и воспитания, здравоохранения, культуры и искусства, подняты на новый уровень внимание и забота о представителях старшего поколения, женщинах и молодежи.

Реализованы важные программы в сфере государственного и общественного строительства, а также направленные на либерализацию экономики, обеспечение неприкосновенности частной собственности и поддержку предпринимательства.

Проведена огромная работа по укреплению в нашей стране мира и стабильности, межнационального и межконфессионального согласия, повышению культурно-духовного уровня населения, усилению боевого потенциала Вооруженных Сил, проведению взаимовыгодной и прагматичной внешней политики.

Обеспечена свободная конвертация валюты, искоренен принудительный труд, в корне реформирована система «прописки», долгие годы создававшая трудности для населения.

В результате преобразований за последние пять лет повысился уровень жизни людей, рост экономики страны составил 24 процента, промышленности – 34 процента, объем экспорта вырос в 1,5 раза, иностранных инвестиций – в 3 раза. Среднемесячная заработная плата увеличилась в 2,2 раза.

Благодаря твердой воле и выдающемуся организаторскому потенциалу Ш.М. Мирзиёева задачи по обеспечению благополучия народа, сокращению бедности были возведены в ранг государственной политики. Для их решения сформированы новые подходы и методы. На основе «железной», «женской», «молодежной» тетрадей и «тетради милосердия» были разработаны конкретные планы и программы, которые сегодня активно выполняются на практике.

